

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
HUDUDIY MARKAZI**

YA.I. RAXIMOVA

**INGLIZ TILINI O'RGATISHDA KICHIK HIKOYALARDAN
FOYDALANISH USULLARI**

Samarqand-2020

Ya. I. Raximova. *Ingliz tilini o'rgatishda kichik hikoyalardan foydalanish*. Umumta'lim maktablari ingliz tili o'qituvchilari hamda malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun uslubiy ko'rsatma. – Samarqand, 2020, 26 bet.

Mas'ul muharrir:

S.A.Yo'ldosheva - Samarqand viloyati
XTXQTMOHM tillarni
o'qitish metodikasi
kafedrasi mudiri

Taqrizchilar:

Z. Kabilova - Samarqand davlat chet
tillar instituti o'qituvchisi

N. Kushakova - Samarqand viloyati
XTXQTMOHM tillarni
o'qitish metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi

Mazkur uslubiy ko'rsatma umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda o'qituvchilarda ingliz tilining barcha ko'nikmalarini oshirish maqsadida darslarda kichik hikoyalarni qanday qo'llash bo'yicha tavsiya va usullar ko'rsatilgan.

Samarqand viloyati XTXQTMOHM ilmiy-uslubiy kengashining 2020-yil 26-dekabrda bo'lib o'tgan yig'ilishida muhokama etilgan va 9-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu uslubiy ko'rsatmaning maqsadi ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda kichik hajmli hikoyalarning muhimligini va bunday hikoyalardan darslar davomida foydalanish usullarini ko'rsatishdir. Kichik hikoyalar til o'rganishdagi t'ort ko'nikma, ya'ni so'zlashish, o'qish, tinglab tushunish va yozish ko'nikmalarini o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ulardan til o'rganish va o'rgatish jarayonida foydalanish muhim hisoblanadi. Shuningdek, hikoyalar motivatsiya beruvchi va qiziqarli bo'lib, til o'rganuvchilarda ushbu tilga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bunday hikoyalar o'quvchilarda til o'rganishni davom ettirishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otadi. Bolalar o'z ona tilini nafaqat darslar davomida, balki uni ishlatgan, muloqot qilgan hamda ushbu tilda fikrlarini bayon qilgan holda o'rganganlaridek, xorijiy tilni ham shu tarzda o'rganishlari ayni zaruratdir. Bu maqsadga erishish uchun esa kichik hikoyalar, ayniqsa, foydali hisoblanadi. Bunday hikoyalar o'quvchilarning lug'aviy boyligini va tilni tushunib yetishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'z navbatida esa qiziqtirish shaxsning shakllanishida, faolligini oshirishda zarur bo'lgan eng kuchli quroldir. Shu o'rinda o'qituvchining o'quvchilarda kitobga, asarlarga mehr uyg'otishi ularning ham adabiyotga nisbatan mehr paydo bo'lishiga, ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishininhg oshishiga turtki bo'ladi. Mazkur uslubiy ko'rsatmada hikoyalarning qo'llash usullari va ulardan qay tarzda foydalanish haqida tavsiyalar yoritilgan bo'lib, ularni amalda ishlatish o'qituvchilar va til o'rganuvchilar uchun foydali hisoblanadi.

INGLIZ TILI DARSLARIDA HIKOYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Hikoyalar dars davomida o‘quvchilarning ingliz tilining asl ko‘rinishini tushunishga, ularga motivatsiya berishga yordam beradi. Bunday darslarda o‘qituvchi til manbaiga aylanadi va o‘quvchilar faol ravishda jalb qilinib, “til bilan yashaydilar”. Boshqa tomondan esa hikoyalardan foydalanish ularning tinglab tushunish va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning yozish va gapirish ko‘nikmalari ham rivojlanib boradi. Ammo darslar davomida hikoyalardan foydalanish shunchaki ularni o‘quvchilarga o‘qib berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Til o‘rgatish darslarida hikoyalardan faqatgina maroq olish uchun emas balki maqsadli ravishda foydalanilsa o‘quvchilarda til ko‘nikmalarini rivojlantirishning imkoniyati oshadi. Darslarda hikoyalar ishlatishning dastlabki bosqichidanoq o‘quvchilar diqqatini-e‘tiborini tortadigan va ularni izlanishga undaydigan maqsadlarda foydalanish ayni zaruratdir. Bundan tashqari, darsda hikoyani ishlatishdan oldin uning quyidagi kriteriyaga moslini tekshirib, so‘ng tanlab olish kerak:

- Hikoya o‘zingizga yoqadimi, uni maroq bilan aytib bera olsizmi?
- O‘quvchilarni o‘ziga jalb qila oladimi?
- O‘quvchilar uchun u maroqlimi, ularni qiziqtirib qo‘ya oladimi?
- O‘quvchilaringiz ehtiyojlariga mosmi?
- Undan to‘laqonli zavq olishlari uchun har bir o‘quvchiga tushunarli bo‘ladimi?
- Til o‘rgatishda qo‘ygan maqsadingizga mos keladimi?
- To‘g‘ri hajmdami?
- O‘quvchilar tarbiyasi va qadr-qimmatini uchun ahamiyatlimi?

O‘quvchilar o‘z ona tilida hikoya tinglashga odatlangan bo‘lishlariga qaramasdan uni xorijiy tilda tushunish ular uchun murakkablik qiladi. Ularning hikoyadan zavq olib tushunishlari uchun esa o‘qituvchi turlicha yo‘llar bilan yondoshishi mumkin. Masalan:

- Lingvistik maqsadlarni aniqlab olish. O'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan qanday lug'at va til strukturalari kerakligini aniqlashtirib olish muhimligi.

- Hikoya kontekstini ta'minlab berish hamda ba'zi asosiy qahramonlarni tanishtirish.

- Ko'rgazmali yordamchi vositalar bilan ta'minlash: rasmlar, kartochkalar, tasvirlar va h.k.ni ishlatish.

- (...)

Har bir o'qituvchi o'z darsining maqsadidan kelib chiqqan holda yuqorida keltirib o'tilgan jihatlarni e'tobrga olishi lozim.

Hikoyalarning yana bir foydali jihati shundaki, o'quvchilar ularni tinglashni yaxshi ko'radilar va o'qituvchi bu vaziyatdan unumli foydalanib qolishi mumkin. Quyida nima uchun ingliz tili darslarida hikoyalardan foydalanish kerak ekanligini sabablari ko'rsatib o'tiladi:

- Hikoyalar maroqli va motivatsiya beruvchi. Bundan tashqari ular o'quvchilarda tilga bo'lgan ijobiy qarashni shakllantiradi va qiziqishini oshiradi. Hikoyalar tilni o'rganishga bo'lgan xohishni keltirib chiqaradi.

- Hikoyalar tasavvur qila olish va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. O'quvchilar o'zlarini hikoya qahramonlari bilan taqqoslashlari va hikoyaga shaxsan jalb etilishi mumkin. Bunday tasavvurning boyligi esa, o'z navbatida, bolalarda ijodkorlikni shakllantiradi.

- Hikoyalar bola fantaziyasini real dunyo bilan bog'lash uchun yaxshi vosita hisoblanadi. Bolalar o'zlarining kundalik hayotida bo'layotgan voqea-hodisalarning ma'nosini tushunib yetadilar.

- Hikoyalar tinglash bu ijtimoiy ulashiladigan tajribadir. Hikoyani maroq bilan tinglab, mazza qilib kulgan bolada o'ziga bo'lgan ishonch ortadi va uning ijtimoiy- hissiy qobiliyatlari rivojlanadi.

- Bolalar hikoyalarni qayta-qayta tinglashni yaxshi ko'rishadi. Ularning tez-tez takrorlanishi tilning ma'lum bir jihatlarning o'zlashtirilishiga olib keladi. Takrorlash mashqi o'quvchilarni hikoyani so'zlab berishga undab, ularda hikoyaning mazmuni, uning keyingi

rivojini bila olish hamda tilning muhim jihatlarini qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

- Hikoyalarni taqdim etish o'qituvchiga yangi so'zlarni tanishtirish yoki ularni takrorlash hamda gap structuralari bilan tanishtirish imkoniyatini beradi.
- Hikoyalarni tinglash o'quvchilarga tinglab tushunish va diqqatini oshirish imkonini beradi.

Hikoyani to'g'ri taqdim etish uchun o'qituvchi uni o'rganib chiqishi lozim. Hikoyani o'rgangandan so'ng uni o'zingizga moslashtirib aytishingiz mumkin bo'ladi, ya'ni uni qisqartirish yoki murakkab til birliklarini soddarog'iga almashtirish mumkin. Yana bir muhim jihat shundaki, o'qituvchi hikoyani so'zlab yoki o'qib berishdan oldin uni imo-ishora va ifoda bilan o'qishni ko'zgu yoki yaqinlari oldida mashq qilib olishi lozim. Chunki o'quvchilarni haqiqiy hikoya dunyosiga cho'mdirish uchun uni sun'iy tarzda, shunchaki o'qib berish yaramaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, hikoyalar o'quvchilarning nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularga hissiy va ijtimoiy tomondan ham foydalidir. Hikoyalar orqali bolalar o'z-o'zini anglashni, boshqalarni tushunishni o'rganib yetadilar. Ko'pgina hikoyalar bolalarda ichki qo'rquvni va ulg'ayish vaqtidagi muammolarini yengishiga yordam beradi.

HIKOYALARDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHALARI

Hikoyani birinchi marta taqdim etayotganda quyidagi jihatlarga ahamiyat qaratish lozim:

- *Sinfda tinch va norasmiy muhitni yaratish.* O'qituvchining o'quvchilar bilan samimiy va do'stona munosabat qilishi darsda hotirjam muhitni yaratilishiga hamda o'quvchilarning o'zlarini erkin his qilishlariga imkon beradi.

- *O'quvchilarni odatdagidan ko'ra o'qituvchiga yaqinroq o'tqizish.* Ular o'qituvchi hikoyani o'qiyotganiga uning yuz ifofasini, lablar harakatini yaqinroqdan kuzishlari lozim.

- *O'quvchilarning joylashish holati.* Ularning o'tirish holatini o'zgartirish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga olib kelib, o'quvchilar ustozining o'zlari bilan nimanidir bo'lishmoqchi ekanligini his qiladilar. Bu esa ularning diqqatini jam qilishlariga undaydi.

- *Hikoya tinglash burchagini tashkil etish.* Buni amalga oshirish uchun sinfdagi gilam to'shalgan joyga bolalarni yarim aylana shaklida o'tqazdirib, oldilariga o'zlarini erkin his qilishlari uchun yostiqlar qo'yilishi hamda oldilaridagi kitob javonidagi kitoblarning qo'l yetadigan tarzda o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir.

- *Kitob o'qish burchagini rasmlar bilan bezatish.* Ushbu kitob o'qish va hikoya tinglash burchagini yanada e'tiborni tortadigan qilish uchun uni yorqin rasmlar va gullar bilan bezash mumkin. Agar ushbu burchak bolalar allaqachon o'qigan hikoya qahramonlarining o'zlari yasagan tasvirlari bilan bezatilsa nur ustiga a'lo nurdir.

- *Eng qiziqarli kitoblar yoki hikoyalarning top o'nligi reytingi.* O'qish burchagiga o'quvchilar nazarida eng qiziqarli kitoblarning top o'nligi aks etgan reytingi aks ettirilishi ham mumkin. Eng qiziqarli kitoblarning top reytingiga qarab o'quvchilar nafaqat o'z ona tilidagi, balki o'rganayotgan tildagi adabiyotlarni o'qishga ishtiyoqi oshadi.

- *Hikoya tinglash vaqtini tashkil etish.* Ba'zi sinflar tuzilishi jihatidan burchak tashkil etilishiga mo'ljallanmagan bo'ladi. Bunday holatlarda ba'zi o'qituvchilar o'zlarining "hikoya qopi" ga ega bo'lib, bolalarning diqqatini hikoya tinglash vaqtiga jalb etish uchun ushbu qopni o'quvchilarga ko'rsatishlari bilanoq bolalar diqqatini hikoya uchun jamlab oladilar.

- *Maxsus kiyim yoki qo'g'irchoqlardan foydalanish.* Ayrim o'qituvchilar turli qo'g'irchoqlardan foydalanishadi, yoki boshlariga hikoya o'qish uchun maxsus qalpoq va ustilariga maxsus kiyim kiyib oladilar. Bunday amallarning barchasi hikoya o'qish vaqtiga qandaydir sirli va g'aroyib tus bag'ishlab, natijada bolalar hali hikoyani tinglamasdan turib uni yoqtirib qolishadi.

- *Hikoyani o'qishdan oldin uni repetitsiya qilib olish.* Hikoyani o'qiyotganda o'qituvchi bolalar bilan tez-tez ko'z kontaktini saqlab turishi lozim. Hikoyani o'qib bermasdan uni aytib berilsa, yanada maqsadga muvofiqdir.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, darsda hikoyalarni turli ko'rinishlarda ishlatish mumkin. Agar o'quvchilar hikoya tinglash bilan hali tanish bo'lmasa o'qituvchi hikoya mazmunini yetkazib berish uchun uni aniq, ravon va sekin o'qishi, yordamchi ko'rgazmali materiallardan foydalanishi, izoh berib ketishi hamda yuz ifodasi va imo-ishoralardan foydalanishi lozim. Shu bilan birga o'qituvchi xotirjam va osoyishta muhit yaratilishi lozim. Va nihoyat, eng muhim jihat bu- hikoya aytish yoki o'qib berishni ularga bog'liq mashqlar bilan uyg'unlashtirib o'tishdir. Bu usulning maqsadi til o'rganishning samaradorligi oshirish uchun o'quvchilarning ijodiy fikrlashiga ko'maklashuvchi interaktiv jarayonni tashkil etishdir.

INGLIZ TILI DASLARIDA HIKOYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Hikoyada berilgan yangi soʻzlarni taqdim etish usullari.

Yangi soʻzlar taqdim etilgach, oʻquvchilar uni ishlatishlari va qay darajada tushunganliklarini aniqlash lozim. Quyida buni tekshirish uchun turli mashqlar berilgan:

- **“What’s missing?”** Bu doskaga eng koʻpi bilan oʻnta rasm yopishtiriladi. Oʻquvchilarga koʻzlarini yopish kerakligi aytiladi. Ularning koʻzlari yumuq boʻlgan paytda rasmlardan biri olib qoʻyiladi. Oʻquvchilar koʻzlarini ochib nima yoʻqligini aytishlari lozim.

- **“Kim’s Game”**. Bu oʻyin ham avvalgi oʻyinga oʻxshab ketadi. Oʻquvchilar olib qyilgan rasmlarning barchasini yoddan aytishlari lozim boʻladi.

- **Matching words to the pictures**. Oʻquvchilar soʻzni toʻgʻri keladigan rasimga moslaydilar.

- **Guessing games**. “Hide-and-Seek”- bir oʻquvchi sinfxonadan chiqib turadi. Bu paytda qolganlar sinfdagi biror buyumni bekitib qoʻyadilar. Bola qaytib kirgach, buyumning qaerdaligini topish uchun savollar beradi: Masalan, ‘Is it under the table?’. Bu oʻyin predloglar va otlarni takrorlash uchun qoʻl keladi.

- **Mime**- oʻquvchilardan biri hayvon, kasb yoki naimaki tanlansa shuni mimika bilan koʻrsatib beradi. Qolganlar esa buning qaysi soʻz ekanligini topishlari lozim.

- **Picture dictation/Giving instruction**. Oʻqituvchi aniq lugʻaviy birliklarga asoslanib oʻquvchilarga yoʻllanma beradi. Masalan, “Show me a red square!”/

“Colour number four red!”.

- **Sequencing**. Doskadagi rasmlar aralashtirib yuboriladi. Oʻqituvchi yoki oʻquvchi buyruq/yoʻnalish beradi: “ Put the chocolate cake first!” .

- **Classification**. Oʻquvchilar soʻzlarni turli toifalarga ajratadilar. Masalan, The Very Hungry Caterpillar hikoyasidagi shirin va shoʻr taomlarni ajratishadi.

- **Memory games.** “Chinese Whispers” – bir o‘quvchiga yoki guruhga ular eslab qolishi lozim bo‘lgan so‘zlar ro‘yxati beriladi. Shundan so‘ng o‘quvchi boshqa bir o‘quvchiga bu so‘zlarni pichirlab aytishi lozim. Tinglagan bola keyingi bolaga pichirlaydi va o‘yin shu tarzda so‘ngi ishtirokchiga kelgunga qadar davom etadi. So‘ngi ishtirokchi esa bu so‘zlarni baland ovozda aytadi va birinchi tinglagan bola bilan nechta so‘z o‘zgarganligini taqqoslaydilar.

Bulardan tashqari, yangi so‘zlarni mustahkamlash uchun turli o‘yinlar mavjud. Masalan, “Hangman”, “Odd word out”, “I Spy”. Ko‘pgina bolalar yangi so‘zlarni tez yodalab oladilar, lekin ularni yodda uzoq vaqt saqlash uchun qaytarib turishlari lozim. Yangi so‘zlarni taqdim etgach va ularni takrorlab bo‘lgach, o‘quvchilardan ularni mustahkamlash va takrorlash uchun o‘zlari biror bir usulni o‘ylab topishlari taklif etiladi. Quyida taklif etilishi mumkin bo‘lgan usullarning ba‘zilari berilgan:

- **Picture dictionary.** O‘quvchilarni o‘zlarini rasmi lug‘atlar yaratishga undash. Bunda ularni tashkil etishning yo‘llarini: alfavit tartibida, nomlanishiga va grammatik toifasiga yoki hikoyadagi xarakteri, voqealarga qarab tashkil etish muhokama qilinadi. O‘quvchilar so‘zning ma‘nosini ifodalash uchun rasm chizadilar yoki mos rasm topib yopishtiradilar, yonidan esa o‘sha so‘zni yozib qo‘yadilar. Umuman olganda, sinfxonada yaxshi lug‘atning bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bu o‘quvchilarni yangi so‘zlarni o‘zlari izlab topishga o‘rgatadi. Ushbu lug‘at rasmi, ikki tilli yoki elementar darajadagi bir tilli lug‘at bo‘lishi mumkin.

- **Word families/sets.** O‘quvchilarni rasmi lug‘atga muqobil sifatida so‘z oilalarini yaratishga undash mumkin. Rasmlar hikoyalardan ko‘chirib olinib, *Clothes, Fruit, Toys* kabi nomlar bilan belgilanib konvertlarda saqlanishi mumkin.

- **Yangi so‘zli kartochkalar.** O‘quvchilar o‘zlarini tekshirib ko‘rish uchun o‘zlarining so‘zli kartochkalarini yasashlari mumkin. Kartochkaning bir tomonida rasm chiziladi. Ikkinchi tomonida esa ingliz tilidagi so‘zi yoziladi. Ular kartochkani tanlab oladilar va rasimga

qarab ingliz tildagi so'zni eslashga harakat qiladilar. So'ng kartochkaning orqa tomoniga qarab o'zlarining to'g'ri topgan yoki topmaganliklarini tekshirib ko'rishlari mumkin.

- **Kollajlar.** Kollajlar yasash yangi so'zlarni takrorlashning foydali usuli hisoblanadi. O'quvchilar aniq bir mavzuga oid rasmlarni topadilar va ularning nomlari bilan birga katta qog'ozga ko'rgazmali qilib yopishtirib chiqadilar.

Hikoyada berilgan ayvonlarning nomlarini taqdim etish uchun o'qituvchi o'quvchilarga hayvonlarning rasmi tushirilgan kartochkalarni ko'rsatadi va quyidagi o'yinlardan foydalansa bo'ladi:

- **Alphabet animals:** o'quvchilardan C harfiga bitta hayvon yoki K harfiga ikkita hayvon nomini topishlari so'raladi.

- **Total physical response:** kartochkalardan foydalangan holda rasmlardan aytilgan hayvonni topish yoki uni boshqa bir hayvonning yonidan joylashtirish so'raladi.

- **Classification:** o'quvchilardan ikkita sudralib yuruvchi yoki ikkita qushning nomini aytish so'raladi.

- **Repeat if it's true:** hayvonlar haqida gaplar yozib, o'quvchilardan ushbu ma'lumot to'g'ri yoki noto'g'riligini so'rash.

“The Very Hungry Caterpillar” hikoyasining darsda ishlatilish namunasi (1).

O'quvchilarga kitobning muqovasini ko'rsatilib, pilla qurtiga ishora qilinadi va so'ng “Bu nima?” den so'raladi (*caterpillar* haqida ma'lumotni aniqlashtirish). O'quvchilarga hozir ularning kapalak qurti, ya'ni juda och kapalak qurti haqida hikoya eshitishlari aytiladi. Zarur bo'lsa, o'quvchilardan o'z ona tillarida “kapalak qurtlari nima yeydilar?” degan savol bilan murojaat qilish mumkin. Ularning javoblari o'qituvchi tomonidan doskaga yoziladi yoki chiziladi. “Kapalak qurti nimaga aylanadi?” (ehtimol, o'quvchilar *butterfly* deb ayta olishadi). Ulardan “kapalak qurtiga aylanishdan avval kapalak qurti nima edi?” degan savol beriladi (*egg* haqida ma'lumotni aniqlash). “Tuxum qanday kattalikda bo'ladi?” (*tiny/small* haqida ma'lumotni aniqlash). “Kapalak qurtlari nima qiladi?” (*eat/grow* haqida

ma'lumotni aniqlash). Doskada asosiy so'zlar yoziladi yoki chiziladi. O'qituvchi doskadagi rasmlarni ko'rsatib takrorlatadi: *egg, caterpillar, cocoon, butterfly*.

Kapalakning hayot sikli

Tiny, big, va fat sifatlarini takrorlash yoki tanishtirish. "Kapalakning hayot sikli" jadvallarini tarqatiladi va o'quvchilardan diagramni belgilashlarini va bo'yashlarini so'raladi. Siz *tiny caterpillar/ a big, fat caterpillar* iboralarini mashq qilishni istashingiz mumkin. Zarur bo'lganda qayta -qayta aylantirib so'rash mumkin.

Hafta kunlari

"What day is it?" deb so'rang. Shu darsning kunidan boshlagan holda hafta kunlarini o'rgatish yoki takrorlash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarda har bir so'zda nechta bo'g'in borligini va qaysi bo'g'inga urg'u berilganini so'rash, chapak solish orqali talaffuzni tekshirish.

Qo'shiq: "Monday, Tuesday, ..."

Bolalar ohang bilan tanishishlari uchun qo'shiq kuylanadi. Dastlab kuy ohangini kuylab va so'ng so'zlarni aytib bolalarni kuyni aytishga taklif etiladi. So'ng o'quvchilar ikkitadan bo'lib, tik holda bir-birlariga yuzma-yuz turadilar. Har bir urg'u qo'yilgan bo'g'inda ular quyidagi harakatlarni bajaradilar:

Bir	Ikki	Uch	To 'rt
Qo'llar bellarda	Chapak chalish	Sherikning qo'lga chapak chalish	Chapak chalish
<i>Monday</i> <i>Friday</i>	<i>Tuesday</i> <i>Saturday</i>	<i>Wednesday</i> <i>Sunday</i>	<i>Thursday</i> <i>X X</i>

Sinf keyinchalik ikkita guruhga bo'linadi va har bir guruh boshqa kunni kuylaydi. Qo'shiq doira bo'lib turib kuylanishi ham mumkin. Ixtiyoriy davom ettirish faoliyatlari:

Kartochkalaridan foydalanib, hafta kunlarining yozilgan shakli bilan tanishtiring. O'quvchilarga kartochkalarni ko'rsating va so'rang: "What day is it?" *It is Tuesday* javobini o'rgating. Yana kartochkalarni ko'rsating va so'rang: "Is this Monday?" *Yes, it is!* yoki *No, it isn't!* javoblarini ra'batlantiring.

Tartibga solish.

Kartochkalarni doskaga yopishtiring aralashtirilgan holda yopishtiring va o'quvchilardan hafta kunlarini tartib bilan qo'yishlarini so'rang. O'quvchular o'z kartochklarini yasaydilar va ularni aralashtiradilar. Kunning nomini ayting va o'quvchilardan o'sha kundan boshlab hafta kunlarini tartib bilan qo'yishlarini so'rang. Masalan, agar siz "Wednesday!" desangiz, o'quvchilar *Wednesday*ni birinchi qo'yadilar va so'ng Thursday, Friday va boshqa kunlarni tartib bilan joylashtiradilar.

"The Very Hungry Caterpillar" hikoyasini darsda ishlatilish namunasi (2).

- *That night he had a stomach ache!* degan joyidan boshlab o'qish.
 - Oziq-ovqat haqidagi yangi so'zlarni tanishtirish va takrorlash.
 - *Do you like...? (Yes, I do./No, I don't.)* savoli va va javobini tanishtirish va mashq qilish.
 - Sinfda so'rovnoma o'tkazish va grafikdagi natijalarni taqqoslash va talqin qilish.
 - Madaniyatlararo taqqoslashni qilish.
- Materiallar
- Har bir o'quvchi uchun: "Do you like...?" so'rovnoma jadvali nusxasi
 - Kartochkalar yasash uchun kitobda oziq-ovqatlarning rasmlaridan nusxa olish.

Hikoyani o'qish

On Friday he ate through five oranges, but he was still hungry hikoyasini takror aytib bering. O'quvchilar haftaning kunlarini,

mevalarning soni va nomlarini ayta olayotgani hamda “still”ga urg‘u berayotganiga ahamiyat berib ...*but he was still hungry* naqoratini takrorlashga qo‘shilishlarini rag‘batlantirish. O‘quvchilardan shanba kuni kapalak qurti nima yeyishini aytib berishlarini va doskada o‘z takliflarini yozishlari va rasmini chizishlarini so‘rang.

Sahifani oching va o‘qishdan avval o‘quvchilar syurprizni va hazilni baholay olishlarni uchun rasmlarga qarashga o‘quvchilarga vaqt bering. O‘qishni, har bir predmetni birma-bir ko‘rsatishni boshlang va sizning ohangingiz har bir predmetdan so‘ng ko‘tarlishiga va oxirigisida tushishiga ishonch hosil qiling. *Sick/ill*ni aniqlash uchun o‘quvchilardan kapalak qurti o‘zini qanday his qilishi haqida so‘rang. *That night he had a stomach ache!* degan joyidan boshlab o‘qing. O‘quvchilardan ular ko‘p ovqat yeyishganda hech qorinlari og‘riganligi haqida so‘rang. Ular o‘zlarini qanday his qilganlar?

Oziq-ovqat haqidagi yangi so‘zlarni mashq qilish.

So‘zni aniqlab va aytib doskaga shanba uchun har bir oziq-ovqat maxsuloti kartochkasini birin-ketin qo‘ying. O‘quvchilar tanish bo‘lmagan oziq-ovqatni, masalan, *pickle* – uksusda saqlanadigan sabzavot uchun umumiy so‘zni; piyozlarni, rangli karamni va hikoyadagi bodringni tushuntiring. Yangi so‘zlarni mashq qilish uchun quyidagi o‘yinlar va mashg‘ulotlardan bittasidan yoki bir nechtasidan foydalaning.

Nima yetishmayapti? Doskaga kartochkalarni yopishtiring. Bolalarning kartochkalarga bir necha daqiqa qarashlariga ijozat bering. Ularning ko‘zlarini yumishlarini ba oziq-ovqat kartochkalaridan birini olishlarini so‘rang. O‘quvchilardan ko‘zlarini ochishlarini va “Nima yetishmayapti?” deb aytishlarini so‘ranglar. Siz bir paytning o‘zida ikkita yoki uchta kartochkani olib o‘yinni qiyinroq qilishingiz mumkin.

Tartibga solish. *On Saturday he ate through...* sahifasini bolalarga ko‘rsating va bolalardan kapalak qurti yegan oziq-ovqatning hamma qismlarini va tartibini eslab qolishga harakat qilishlarini so‘rang.

Kitobni yoping va kartochkalarni doskaga tartibsiz holatda qo'ying. Bolalardan ularni to'g'ri tartibda qo'yishlarini so'rang.

Shirinmi yoki sho'r? Dorskada ikkita ustuncha chizing va chap tomonda *sweet* va o'ng tomonda *salty degan* sarlavha qilib qo'ying. O'quvchilar *sweet* va *salty* ni farqini tushunishlarini tekshiring. Agar iloji bo'lsa, o'quvchilarning birorta shirin narsani va keyin birorta sho'r narsani ta'tib ko'rishlariga imkon bering. Oziq-ovqat kartochkalarini aralashtiring va ularni stol ustiga qo'ying. O'quvchilardan uni ikkita guruhga ajratishlarini so'rang. Masalan, "Mary, birorta sho'r narsani tanla" deb ayiting. O'quvchilardan birortasi predmetni tanlaydilar va uni Blu-Tack bilan birga mos keladiga ustunchaga joylashiradi:

Shirin	Sho'r
Cupcake	Cheese
Lollopap	Salami
ice cream	pickle...etc.

O'qituvchi dushanbadan jumagacha bo'lgan mevalarni o'quvchilar bilan takrorlab oladi. Dorskaga jadval chizilib, o'quvchilarga oziq-ovqat nomlarini joylashtirib chiqish taklif etiladi. Jadvalga oziq-ovqatlarni turli ko'rinishda: rasmlar, so'zlar yoki chizish bilan to'ldirilishi mumkin. O'zlarining bilimidan kelib chiqqan holda ushbu jadvalga ular yana oziq-ovqat nomlarini qo'sha oladilarmi yoki yo'qmi, taklif etib ko'rish mumkin.

O'quvchilardan ushbu oziq-ovqatlarning qay biri sog'lom, qaysi biri esa nosog'lom ekanligi va nima uchun ular bunday deb o'ylashlari so'raladi. Shu o'rinda o'qituvchi o'quvchilarga sog'lom ovqatlanish borasida ba'zi tushunchalarni berib o'tish mumkin:

- Har bir guruhga mansub turli ovqatlarni iste'mol qiling.
- Yetarli darajada non, donli mahsulotlar va kartoshka iste'mol qiling.
- Har doim toza, yuvilgan meva va sabzavotlarni yeng.
- Shirinliklarni me'yordan ortiq yemang.

Yuqori sinflarda til o'rgatishda hikoyalardan foydalanish

Yuqori sinf o'quvchilari uchun ularning yoshi va qiziqishiga mos keluvchi hikoyalardan foydalanish lozim. Hikoyalar yordamida o'quvchilar tanqidiy fikrlashga, hikoyadagi vaziyatlarni o'zlarining hayotida bo'lgan vaziyatlar bilan solishtirishga o'rganadilar.

Know/want to know/learn (K-W-L) metodi.

Ushbu metod butun bir dars stukturasini tuzib berishga ko'maklashishi mumkin. Bunda o'quvchilardan ular bu mavzu haqida allaqachon nimanidir bilishsa shu narsalar haqida mulohaza qilishlari, ushbu mavzu yuzasidan berilgab savollarga javob berishlari so'raladi.

Buning uchun hikoya mavzusi tanlanadi va kichik bir jadval tuziladi.

What do we Know?	What do we Want to Know?	What Did We Learn?

Ushbu jadval o'quvchilarning hikoya/nomi/mavzusi haqida nimani bilishlarini so'rash uchun ishlatiladi. Bu usul har qanday hikoyani o'rgatishdan oldin ishlatilishi mumkin. O'qituvchi hikoyaning nomini aytishdan boshlaydi va o'quvchilar bu nomni avval ham eshitganmi yoki yo'q, agar eshitgan bo'lsalar qanday ma'lumotlarni biladilar va bilgan ma'lumotlari asosida qanday fikrlar bilan o'rtoqlashishi mumkinligi so'raladi. O'quvchilar doskada chizilgan jadvalga qarab o'zlarining daftariga shunday jadval chizadilar. Shundan so'ng ular jadvalni bilgan ma'lumotlari asosida va kutayotgan yangi ma'lumotlar haqida yozib to'ldiradilar.

Hikoyalar bilan bir qatorda masallardan ham til o'rgatish jarayonida keng foydalanish mumkin. Avvalo, masal sinfnig bilim darajasidan kelib chiqqan holda murakkabligi, uzunligi, leksik birliklri va grammatik strukturalariga qarab tanlab olinadi. Masalan, Ezopning

“The lion and the mouse” deb nomlangan hikoyasi orqali bir qancha lingvistik strukturalarni o‘rgatish mumkin. Ushbu masal, yuqorida ta’kidlar o‘tilganidek, oddiy va murakkab tilda yozilgan bo‘lib, uni o‘quvchilarga moslashtirib olinadi. Quyida ingliz tili darajasi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan o‘quvchilar uchun bu masalning bir ko‘rinishi keltiriladi.

1. O‘quvchilar juftlikda ishlashadi. Ularga ushbu hikoyada keladigan ayrim so‘z va iboralar va ularning ma‘nosi yozilgan varaqlar tarqatiladi. O‘quvchilar so‘zlarni ma‘nosi bilan moslashtirishlari kerak bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni ludg‘atdan foydalanmasdan turib so‘zlarning ma‘nosini topishi kerakligini aytadi. O‘quvchilar avvalgi bilimlariga tayangan holda imkon qadar so‘zlarni ma‘nosi bilan moslashtiradilar. Bu mashg‘ulotga besh-yetti daqiqa vaqt beriladi.

2. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan so‘zlar va iboralarni o‘qib, ularning ma‘nolari bir-biriga mos kelganini tekshiradilar. Agar so‘zlarning ko‘pchiligi o‘quvchilarga notanish bo‘lsa, bu so‘zlarni bir necha marta takrorlash orqali talaffuzini eslab qolishga harakat qilinadi.

3. O‘quvchilarga ushbu hikoya “jumbled reading” asosida tuzilgan paragraflarda beriladi. Ushbu paragraph gaplarida yangi o‘tilgan so‘zlar tushirib qoldirilgan bo‘ladi va o‘quvchilar darsning boshida o‘rgangan so‘zlar asosida matndagi bo‘shliqlarni to‘ldiradilar.

The Lion and The Mouse

a) The mouse whose life had been saved by the lion recognized the ____ of the lion and immediately ran to see what was happening. When he saw his mighty friend lion _____in the net he said: “Don’t worry my friend, I will save you!”. The lion was taken by surprise when he saw the mouse gathering all his friends. They _____the net and soon freed him.

b) It was a hot summer’s day, and a lion tired after a long hard _____fell asleep under the shade of the tree. He was rudely _____by a mouse, who has decided to use the lion’s back as a playground.

c) A few months later, the same lion fell pray into a group of hunters and lay _____in the net thrown by attackers. The lion _____loudly pleading to rescue. His pitiful voice was echoing across the forest: “Help me! Help me!”

d)The lion, angry at an _____mouse laid a paw upon him. He said: “You, little _____of an animal, how dare you to wake up me-the king of the jungle? I will _____you with my paw!”

e) The mouse, frightened out of his wits, _____with the lion: “_____me like the king of the jungle. If you let me live, I will never _____you again. One day I will pay you back for your kindness. The lion was _____by the words of the mouse. He felt sorry for the mouse and let him go. The mouse sight for relief and quickly scrambled away.

4. Endi navbat paragraflar ketma-ketligini to‘g‘ri joylashtirish bo‘ladi. O‘quvchilar bo‘shliqlari to‘ldirilgan paragraflarni o‘qib chiqib ularni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirishi lozim bo‘ladi.

5. Guruhlar navbat bo‘lib, bittadan paragrafni to‘g‘ri tartibda o‘qishlari lozim bo‘ladi. Shunday qilib, o‘quvchilar ko‘z o‘ngida Ezopning ushbu hikoyasi yaxlit tarzda gavdalanadi.

6. “The lion and the mouse” hikoyasi video fayl ko‘rinishida tayyorlab qo‘yilgan bo‘ladi va o‘quvchilar ko‘rib o‘zlari tuzgan paragraflarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi tekshirishadi. Hikoyaning so‘ngida o‘qituvchi o‘quvchilarga umumlashtiruvchi: “What is the moral of the story?” degan savol beradi. Shu tarzda o‘quvchilar tanqidiy va ijodiy fikrlashga undaladi.

XULOSA

Til o'rganish faoliyati ham o'rgatuvchi, ham o'rganuvchilar uchun nihoyatda qiziqarli jarayondir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ingliz tili darslarida kichik hikoyalarning ishlatilishi o'quvchilarda nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki o'qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish kabi ko'nikmalar ham rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini va ularning talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga singdirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bunda o'quvchilar matnni tushunish, tanqidiy, tahliliy fikrlash, munosabat bildirish malakalarini shakllantira oladilar. Ingliz tili fanida hikoyalardan foydalanish o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantiradi. Shu bilan birga o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, yozuv va imlo, tinish belgilari) rivojlantirish hamda ingliz tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalar rivojlantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gilroy, M. & Parkinson, B. "Teaching literature in a foreign language." *Language Teaching* ,1997.
2. Lazar, G. *Literature in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press,1993.
3. Mourão, S. "Using Stories in the Primary Classroom." Council, In The British. *BritLit: Using Literature in EFL Classrooms*. The British Council,2009.
4. Murdoch, G. 2002. Exploiting well-known short stories for language skills development.
5. Erkaya, O. R. 2005. Benefits of using short stories in the EFL context. *Asian EFL Journal*
6. Gail, E. 2014. The stotyelling handbook for primary English Language Teachers. British Council.

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
Ingliz tili darslarida hikoyalarning o‘rni va ahamiyati.....	4
Hikoyalardan foydalanishning muhim jihatlari.....	6
Ingliz tili darslarida hikoyalardan foydalanish usullari.....	9
“The Very Hungry Caterpillar” hikoyasining darsda ishlatish namunasi.....	13
Yuqori sinflarda hikoyalarni ishlatish usullari.....	18
Xulosa.....	20
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	21

Ya. I. Raximova

***INGLIZ TILINI O'RGATISHDA KICHIK HIKOYALARDAN
FOYDALANISH USULLARI***

Ingliz tili o'qituvchilari uchun uslubiy ko'rsatma

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 10.01.2021 y.
Bosishga ruxsat berildi: 13.01.2021 y
Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.
«Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.
1,5 bosma taboq Adadi: 50 nusxa. Buyurtma №17/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.

